



Azizbek IBRAGIMOV,
UrDU O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi
E-mail: ibragimovazizbek5500@gmail.com

Urganch davlat pedagogika instituti O'zbek va rus tili adabiyoti kafedrasini mudiri PhD, dots. M. Matquliyeva taqrizi asosida

ETHICAL AND EDUCATIONAL IDEAS IN ORZU URGANJI'S MASNAVIS

Annotation

This article analyzes the masnavis of Orzu Urganji, one of the poets who lived and wrote in the 20th century and had his own way of giving minds and words. During the research, special attention was paid to each masnavi's idea, their formal and poetic features were shown, and places related to poetic arts were also taken into account. Ideological harmonies in the poems of Orzu Urganji and Navoi are attentively compared. All opinions are based on sources.

Key words: Classical literature, tradition, innovation, humanity, idea, advice, didactic, artistry, poetic art, verse, talmikh, historical figures, repetition, quote.

ЭТИЧЕСКИЕ И ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ИДЕИ В МАСНАВИ ОРЗУ УРГАНДЖИ

Аннотация

В данной статье анализируются маснави Орзу Урганджи, одного из поэтов, живших и писавших в XX веке и имевших свой собственный способ передачи мыслей и слов. В ходе исследования особое внимание уделялось идее каждой маснави, были показаны их формальные и поэтические особенности, а также учитывались места, связанные с поэтическим искусством. Внимательно сравниваются идейные гармонии в стихотворениях Орзу Урганджи и Навои. Все мнения основаны на источниках. **Ключевые слова:** Классическая литература, традиция, новаторство, человечность, идея, совет, дидактический, артистизм, поэтическое искусство, стих, талмих, исторические личности, повторение, цитата

ORZU URGANJIY MASNAVIYLARIDA AXLOQIY-MA'RIFIY G'OYALAR

Аннотация

Ushbu maqolada XX asrda yashab ijod etgan, o'z qalamiga, o'z so'ziga ega bo'lgan shoirlardan biri Orzu Urganjiyning masnaviylari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida har bir masnaviy g'oyasiga alohida e'tibor berilgan, ularning shakli va badiiy xususiyatlari ko'rsatilgan, she'riy san'atlar bilan bog'liq o'rinlar ham e'tiborga olingan. Orzu Urganjiy va Navoiy hikmatlaridagi g'oyaviy uyg'unliklar qiyosan solishtirilgan, fikrlar manbalar yordamida asoslangan.

Kalit so'zlar: Masnaviy, ikkilik, mumtoz adabiyot, an'ana, yangilik, novatorlik, insoniylik, g'oya, nasihat, didaktika, badiiyat, she'riy san'atlar, misra, talmih, tarixiy shaxslar, takror, iqtibos.

O'zbek mumtoz adabiyoti o'zining ko'p yillik shakllanish tarixiga ega bo'lib, qanchadan qancha iste'dod egalarning xilma-xil janrlardagi minglab misra ijod namunalari o'z ichiga oladi. Ijodkorlar o'z mahoratlarini ko'rsatish maqsadida iloji boricha turli janrlarda qalam tebratishga harakat qilishgan. Ularning har biri qaysidir janrni o'z maromiga yetkazib, takomilga yetishiga ham hissa qo'shib kelishgan. Xususan, biz tahlilga tortgan Orzu Urganjiy lirikasi ham janriy har xillik bobida o'zidan oldingi ijodkorlardan qolishmaydi. Uning ijodiy merosi g'azal, muxammas, musaddas, muvashshah, qit'a, ruboiy, fard va masnaviy janri namunalaridan iborat. Har qanday janrdagi she'ri ham o'zining badiiyat, qofiya va vazni jihatidan yetarlicha barkamollikka ega bo'lsa-da, biz uning masnaviylarini tadqiq qilishni maqsad qildik.

Modomiki, biror shoirning qaysidir janr borasidagi mahoratiga baho berishga qasd qilinsa, dastlab o'sha janrning paydo bo'lishi va tarixiy ildizlariga nazar solish o'rindir. Aynan "masnaviy" janri borasida adabiyotshunoslikda ko'plab mulohazalar mavjud. "O'zbek klassik she'riyati janrlari" kitobida unga shunday ta'rif beriladi: "...har ikki misrasi alohida-alohida qo'fialanib boradigan (bandi ikki misradan tuziladigan) she'rlar masnaviy- ikkilik deyiladi"[3]. Adabiyotshunos Y. Is'hoqov esa uni "qo'fiyadosh ikki misradan tarkib topgan bayt" [2] deb izohlaydi. Bu janr turkiy she'riyatda Yusuf Xos Hojibning "Qutad'gu bilig" asaridan boshlangan. Asrlar davomida bu janr ixcham fikrlarni ifodalash vositasi sifatida foydalanish bilan birga, epik asarlar uchun ham xoslana bordi. Keyingi davrlarda barcha axloqiy-talimi, ishqi-sarguzasht dostonlari masnaviy shaklida yozildi. Murakkab vaziyatlar, fikrlar va voqealar rivojini tasvirlashdagi imkoniyati tufayli mumtoz adabiyotda katta o'rin egalladi. Keyingi davrlarda esa ijodkorlar o'zlarining didaktik xarakterdagi hikmatlarini ham masnaviyda yoza boshladilar. Orzu

Urganjiy ham shunday ijodkorlar qatoriga kiradi. Uning ijodida axloqiy-talimi g'oyalar yetakchilik qiladi. Bu haqida Madrahim Safarboyev shunday fikr bildirgan: "Agar she'rlarining mundarijasiga e'tibor qaratsak, she'rlarining yarmidan ko'pini odob-axloq masalalariga bag'ishlangan she'rlar, uchdan bir qismini haqiqiy ishq-muhabbatni ulug'lovchi, qolgan qismini ilmu ma'rifat, kasb-hunarni egallashga chaqiruvchi, g'ayri insoniy illatlarni fosh qiluvchi she'rlar tashkil etadi"[1]. Bu fikrning isbotini uning masnaviylarida ham ko'rishimiz mumkin. Alohida hikmat tarzidagi masnaviylaridan tashqari uning "Ilm fazilati" masnaviysi va "Majiddiddin Xavofiy hikoyatiga Orzu Urganjiyning she'riyat libosini kiydirgan masnaviysi" ham mavjud.

Shoirning "Ilm fazilati" masnaviysi ta'limning afzalliklarini ko'rsatish va yoshlikni ilm bilan o'tkazishga da'vatdan iborat. Ilmni ta'riflar ekan, unga "o'tda yonmas, o'g'ri olmas, chirimas, suvga botmas" deya ta'riflaydi. Darhaqiqat, insonning yoshligi umrning eng bebaho lahzalari deya xalq orasida ham, boshqa ijodkorlar asarlarida ham tan olinadi. Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida: "Yigitlik umr gulshaning bahoridur va hayot shabistonining nahori"[6],- der ekan, undan unumli foydalanishga targ'ib qiladi va quyidagi ruboiysini ilova qilib o'tadi:

Ahbob, yigitlikni g'animat tutunguz,
O'zni qarilik mehnatidin qo'rqutunguz.
Oyin adovat-u hasaddin o'tunguz,
Har nav'ila o'zni necha kun ovutunguz[6].
Orzu Urganjiyda ham ayni shu g'oyaning latif ifodasini ko'rishimiz mumkin:
Behuda o'tkazma yoshlik chog'ini,
Yuv ko'ngildin jahli g'aflat dog'ini[1].
Darhaqiqat, yil fasllariga qiyos etilsa, yoshlik umrning bahori bo'lib, ayni shu faslda nima ekilsa, kuzda-qarilik chog'ida

ham shuni o'rish ajablanarli hol emas. Masnaviydan kelib chiqadigan mazmun ham umrning eng gullagan paytini ilm yig'ish bilan bezamoqqa chaqirish, desak o'rinni bo'ladi.

Navbatdagi masnaviyda Orzu Urganjiy o'z davrining oqil kishilaridan biri bo'lgan Majiddin Xavofiyning hikoyatini nazmga aylantiradi. Bizdagi manbada bu masnaviyning bir qismigina berib o'tilgan. Biz ana shu parchani tahlilga tortdik. Deyilmishki, bir farzandning otada quyidagi haqlari bor ekan:

Yaxshi ism qo'yilishi.

Tili chiqqach, yaxshi so'z aytilishi.

Odob o'rgatilishi.

Savodli va ilmi qilinishi.

Hunar o'rgatilishi.

Balog'at yoshiga yetgach, uylantirilishi.

Ana shu 6 haq she'riy tarzda kitobxonlar e'tiboriga havola etilgan. Buning barobarida turli maqollardan ham foydalanilgan, masalan: "Onasini ko'rib, qizini ol, qirog'ini ko'rib, bo'zini ol" maqoli yig'itni yaxshi qizga uylantirish borasidagi maslahatlardan joy olgan. Ota avval o'z o'g'li oldidagi qarzarini ado qilsa, o'g'li ham yaxshi yo'lga yuradigan, qobil farzand bo'ladi, degan fikr shoir tomonidan ilgari surilgan. Urganjiy masnaviydarida didaktik g'oyalari yetakchilik qiladi. Bu borada Navoiy hazratlarining g'oyalari bilan uyg'unlikni ko'rishimiz mumkin. Xususan, Navoiyning "Kuchuk birla xo'tukni qancha qilma tarbiya, It bo'lur, dag'i eshak, aslo bo'lmas odamiy" degan hikmatini Orzu Urganjiyda quyidagi ko'rinishda uchratamiz:

Bad asilga necha qil tarbiyat,

Lek o'ylama umid yaxshi xosiyat.

Necha yuvsang, oq bo'lmaydur ko'mir,

Arpadin bug'doy bo'lmas bir umr[1].

Inson o'z ota-onasiga, 7 ajdodiga o'xshashi ilm-fanda genlar haqidagi nazariyalar yordamida isbotlangan, lekin undan oldin dono xalqimizning ongiga singib ulgurgan va tajribalar bilan sinovdan o'tgan. Shoirlar esa bu fikrlarni o'z yo'llari, o'z zakosi ila turli shakllarda o'quvchilarga havola etdilar. Urganjiy baytlaridagi tasvir o'zidan oldingi ijodkorlarga qiyosan olinsa, originalligi bilan ajralub turadi. Ko'mir tabiatan qora ma'dan va uni yuvish qo'lni ham qora qiladi, lekin ko'mir aslo oqarib qolmaydi. Dalaga arpa ekib, bug'doy unishini kutish ham aqldan emas. Bu kabi o'xshatishlar ikki baytli masnaviyning birinchi baytida aytilgan fikrni dalillash maqsadida qo'llangan.

Shoirning keyingi masnaviyi omonatga sadoqat qilmoq fazilatini aks ettiradi. Birovning omonatiga xiyonat qilganlar inson sanalmasligi, elga dushman hisoblanishi, obro'sizlanishga sabab bo'lishi, kishi haqqi o'zgasiga buyurmasligi, ahdidan qaytganlar nomard bo'lishi haqidagi fikrlar masnaviyda quyuq bo'yoqlarda ko'rsatib berilgan. E'tirof etilishi lozim bo'lgan jihat shundaki, ushbu hikmatdagi g'oya bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Bunday abadiy mavzular keyingi masnaviyalarda ham davom etadi. Maslahat haqidagi masnaviyda kishi biror ish qilishdan oldin ota-onasi, do'sti, yor-birodaridan maslahat olishi kerakligi haqida uqitiladi. Ayniqsa, ota-ona bilan kengashib, ularning roziligi bilan qilingan ish barakali bo'lishi aytiladi.

Masnaviy so'ngida shoir badiiy mahoratini ishga solib, quyidagi qiyosni qistirib o'tadi:

Qaysi ishni qilmoqqa qilsang jadal,

Maslahat birla unga qilgil amal.

Maslahat birla bichilgan har libos,

Tor bo'lmas egninga kiysang xalos.

Haqiqatan ham, ko'p kishi bir kishidan afzal fikrlaydi. Libos ham birgalikda, bamaslahat bichilsa, egasiga torlik qilmaydi, noqulayliklardan xalos etadi, tanaga rohat bag'ishlaydi. Bu kabi dolzarb mavzulardan yana biri- ichkilikbozlik. Shoirning shu mavzudagi masnaviyida kuchli tanqidiy ruhni ko'ramiz:

Ichkilikdan mast bo'lib yotsa yigit,

Sen ulardan ibrat ol, pandim eshit.

Yoshman deb beaqlik qilmagil,

Nafsi shayton ishni ko'zga ilmagil.

Beaql johil yigitlar bordur,

Beaqlga beaqlar yordur.

Darhaqiqat, bir-biriga o'xshash odamlar do'st bo'ladilar, ko'pincha. Ichkilikbozning do'sti ham aroqxo'r bo'lishi ehtimolga juda yaqin bir hol. Yoshlikning g'animat kunlarini kayf-safoga sarflamaslik, mehnat ila topilgan pulni oilaga xarjlash eng maqbul yo'l ekanligi Urganjiy tomonidan e'tirof etilgan.

So'nggi masnaviy munojot ruhida yozilgan. Tadvin(devon tuzish) qoidalariga ko'ra devon eng avval hamd va na't(shuningdek, munojot) ruhida g'azallardan boshlanadi. Keyin esa boshqa janrlardagi asarlar ham davom ettiriladi. Ushbu masnaviyning so'nggi harfi "alif" ekanini hisobga olsak, uni devon boshidan o'rin olgan deya taxmin qilishimiz mumkin. Masnaviy davomida Urganjiy Allohni turli ism va sifatleri bilan eslaydi, qilgan gunohlari uchun Undan afv so'raydi. Masnaviyning ilk baytiyoq fikrlarimizni dalillashi mumkin:

Ey Xudoyo! Osiy qulman, qil madad,

Ismi zoting "Qul huallohu ahad"[1]

Allohga murojaat bilan boshlangan bayt "Qur'oni Karim"ning "Ixlos" surasi 1-oyati bilan davom etadi. Bu o'rinda iqtibos san'ati namunasini ko'rishimiz mumkin. Oyatda Allohning yagonaligi aytilgan. Bunday ta'riflar masnaviy davomida yana bir necha o'rinlarda uchraydi. Lekin masnaviyning asosiy g'oyasi gunohkor bo'lmaslik, tavba qilish kabi insoniy g'oyalarni qamrab oladi. Xususan, ushbu masnaviy quyidagicha yakunlanadi:

Mag'firat daryosiga g'arqob qil

Vaslingga yetkur, yuzim mahtob qil.

Orzu qilgum visoling bog'ini,

Solmog'il manga judolig' dog'ini [1].

Odamsot xatkor qilib yaratilgan, lekin qilgan ayblari uchun tavba qilib, yaxshi inson sifatida jamiyatga o'z hissasini qo'shib yashash chik insoniylik belgisidir.

Yuqorida tahlilga tortganimiz Orzu Urganjiy masnaviydarida, asosan, axloqiy-ma'rifiy g'oyalari ustunlik qiladi. Uning har baytida atrofidagi illatlarga befarq qaramaslik, ogohlikka da'vat ruhi sezilib turadi. Badiiy jihatdan diqqatga sazovor asarlarida u novatorlik yordamida o'xshatishlarni istifoda etadi. Orzu Urganjiy masnaviydari yosh avlod tarbiyasi uchun foydali manba ekanligiga shubhamiz yo'q.

ADABIYOTLAR

1. Orzu. Hikmatlar gulistoni. —Toshkent: "Kamalak", 2015.
2. Y.Is'hoqov. So'z san'ati so'zligi.—Toshkent:O'zbekiston, 2014.
3. O.Nosirov va boshqalar. O'zbek klassik she'riyati janrlari. —Toshkent: "O'qituvchi", 1979.
4. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. — Toshkent: O'zbekiston, 2002.
5. To'xta Boboyev. She'r ilmi ta'limi. —Toshkent: «O'qituvchi», 1996.
6. A.Navoiy. Mahbub ul-qulub. — Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018.